

ATMOSFERANI TEXNOGEN OMILLAR ORQALI IFLOSLANISHINI
O'RGANILISHI

Axmedov Raxmiddin Ilhomovich

Andijon QXAI assistenti

Annotatsiya: Atmosfera havosining zararlanishi bevosita inson hayoti va tabiat komponentlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Atmosfera havosini yo monlashishini oldini olish. Tabiiy va antropogen ifloslanishlarga qarshi kurashish, o'rtacha iqlim va kimyoviy moddalar miqdorini me'yorda saqlab turish dolzarb masalalarimizdandir

Kalit so'zlar: Tabiiy muhit, ifloslanish darajasi, yoqilg'i, texnogen omillar, shahar chiqindilari, chang uyumlari, kislorod miqdori, azot oksidlari

KIRISH

Tabiiy muhitni muhofaza qilish muammolari sotsial-iqtisodiy rivojlanishining turli tarmoqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmiy texnika yutuqlari asosida sanoat korxonalarining rivojlanishi, qishloq xo'jaligining tiklanishi, xalq xo'jaligini o'sishiga olib kelishi bilan bir qatorda tabiiy boyliklarning isrof bo'lishiga, chiqindilar bilan atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Bu borada olimlarning fikricha hozirga qadar yer qobig'idan 100 mlrd tonnaga yaqin ko'mir, neft, torf kabilar qazib olingan. Ularni yoqilg'i sifatida ishlatilishi natijasida 3 mlrd tonnaga yaqin kul, chang atmosferaga tarqalgan. Shu kul va chang bilan birgalikda 1,5 mlrd tonna mishyak va 1,2 mlrd tonna zaharli surma, rux, havo, tuproq va suv muhitiga tushgan.

Dunyo olimlari S. L. Davidova, V.I.Tagasov (2002) tomonidan turli kimyoviy moddalarning xavflilik nuqtai nazardan stress-indeks ko'rsatkichlari belgilangan. Bunga ko'ra pestitsidlar – 140, og'ir metallar – 135, AES chiqindilari – 120, qattiq shakldagi zaharli chiqindilar – 120, metallurgiya materiallari – 90, tozalanmagan oqava suvlar – 85, oltinugurt (II) oksidi – 72, neft – 72, kimyoviy o'g'itlar – 65, organik maishiy chiqindilar – 48, azot oksidlari – 42, saqlanayotgan radioaktiv chiqindilar – 40, shahar chiqindilari – 40, uchuvchan uglevodorodlar – 18, uglerod oksidi – 12 indeks ko'rsatkichlari bilan belgilangan.

Jahonda shunday davlatlar borki, ishlab chiqarish davomida katta daromadni olib, boshqa davlatga zarar keltirmoqda. Buni oldini olish chora-tadbirlarini ko'rmayapti. Bunga misol tariqasida Tojikiston davlatidagi Alyuminiy zavodi faoliyatini ko'satishimiz mumkin. Zavod faoliyati davomida nafaqat Tojikiston Respublikasi hududi balki O'zbekistonning Sariosiyo, Uzun, Denov tumanlari atrof-muhiti, xususan, tuproq, suv, havo qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosi kimyoviy ifloslanishdan zararlanmoqda. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari havosi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodidan chiqqan zaharli ftor gazi bilan ifloslangan. Natijada, tumanlarda bolalar o'limi ko'paymoqda, uzum va mevali daraxtlarning bargi sarg'ayib, qoramollar kasallanib, tishi to'kilib ketmoqda. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning tikka yoki yotiq tarqalishi shamol turiga va yo'nalishining o'zgaruvchanligiga



bog'liq bo'ladi. Shamol turishi sust bo'lsa, zararli moddalarning atmosfera havosidagi miqdori ortib, aholi o'rtasida zararlanish ko'payadi. Shahar havosida 3,4 benz(a)pirinning miqdori 100m³ havoda olinganda 0,5 mkg dan to'g'ri kelsa, katta shaharlarda 1,7 mkg ga yetadi. Avtotransport vositalari sonining ortishi tashqi muhitga ajralib chiqadigan kontserogen moddalarning salmog'ini ortishiga olib keladi.

Atmosfera havosining tabiiy ifloslanishi quyidagi omillar bilan aniqlanadi. Havoda tabiiy chang miqdori shakllanish sharoitlari zaharlari aralashmalarining tarqalishi va bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, fotokimyoviy chang, tutun va qum aralashmalarining hosil bo'lishi atmosferaning o'z-o'zidan tozalanishi va qayta shakllanishiga bog'liq.

Atmosferaning tabiiy holda changlanishi havo oqimiga yer sathida bir turdagi o'simlik va hayvon chiqindilari zaharli o'choqlarning to'planishiga, qumlarning ko'chishiga bog'liq. Chang uyumlari shamolning daqiqada 34 metr tezligida 2 metr balandlikkacha bo'lgan oraliqda hosil bo'ladi. Havoning changlanishi 8-10 metr balandlik oralig'ida, agar tuproq zarrachalari yengil bo'lsa, daqiqada 4-5 metr tezlikdagi shamollar ta'sirida hosil bo'ladi. Mahalliy chang quyunlari shamolning daqiqada 5 metr tezlik ta'sirida hosil bo'ladi. Chang quyunlari uzoq masofaga tarqalib, 9-10 metr tezlikda shamollar ta'sirida og'ir mexanik zarrachalarni ham harakatga keltiradi. Avtomobil transportidan tarqaladigan chiqindi to'yingan tutunlar odam tanasi uchun juda zararlidir. Ko'z qobig'ini va burunni achitadi, nafas olish yo'llarini, miya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Tutun, qum, kuya zarralari o'simliklarning o'sishiga, metall va sirtiga bo'yoq surtilgan narsalarga, sintetik va rezina mahsulotlariga yomon ta'sir qiladi. Bunday aralashmalarining kontsentratsiyalari Toshkent va Farg'ona vodiysida katta miqdorni tashkil qiladi. Atmosfera havosining o'z-o'zidan tozalanishiga havo haroratining tog' va tog' oldi hududlaridan ochiq kengliklarga o'tishi bilan pasayib boradi. Chunki bu joylarda yog'ingarchiliklar kam bo'ladi. Atmosfera havosi tarkibida kislorod miqdorining ko'pligiga qarab uning sifati aniqlanadi. Bunda kislorodni asosan o'simliklar ishlab chiqaradi. Ochiq kengliklarda o'simliklar miqdori kam bo'lganligi uchun kislorod miqdori gektariga 1-2 tonna, qishloq xo'jalik ekinlari eulgan joylar va qadimgi daraxtzorlar hududlarida gektariga 5-6 tonna, tog' o'rmonchiligi xo'jaliklari gektariga 5-6 tonna. Tog' o'rmonchiligi xo'jaliklari evasiga esa gektariga eng yuqori ko'rsatkich 10-15 tonna kislorod ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Tog' oldi hududlarda atmosferada yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli atmosfera tabiiy ravishda tez-tez tozalanib turadi. Yoz faslida esa ekilgan ekinlarning ta'siri tufayli yana qo'shimcha kislorod hosil bo'ladi.

O'zbekiston hududi havo havzasining zaharlanish jihatidan 3 ta mintaqaga bo'linadi. Birinchi mintaqaga Ustyurt, Amudaryoning quyi qismi, Qizilqum, Zarafshonning quyi qismi va asosan cho'llardan iborat bo'lgan hududlar kiradi. Bu joylarda respublikamizning boshqa hududlariga nisbatan atmosferaning zaharlanishi 2,5-2,8 barobar ko'pdir.

Ikkinchi mintaqa O'rta Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va O'rta Sirdaryoning bir qismini qamrab olgan. Ushbu hudud sanoatining atmosferaga



chiqarayotgan zaharli gazlar miqdori bo'yicha yuqori darajadagi atmosferaning zaharlanishi o'rtasida bo'ladi.

Uchinchi mintaqa O'rta Sirdaryo (cho'l tumanlaridan tashqari) va Farg'ona viloyatlari kiradi. Bu mintaqa undagi sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilayotgan iflos gazlar evaziga eng zaharli mintaqa bo'lib hisoblanadi. Ushbu mintaqa ikki markazdan iborat. Toshkent va Farg'ona markazlaridir. Toshkent sanoat markazi respublikada eng rivojlangan bo'lib, shaharlashtirish 70% ni tashkil qiladi.

Respublika atmosfera havosining ifloslanishi asosan, sanoat, transport va qishloq xo'jalikning ta'siri tufayli sodir bo'ldi. O'zbekiston Davlat hisoblash markazining ma'lumotiga ko'ra, bir yilda uning hududida jami atmosferaga chiqayotgan iflos gazlar miqdori 1995 yilga kelib, 3,21 mln tonna (1990 yilga nisbatan 0,4 mln tonnaga ko'p) zaharli aralashmalar ishlab chiqarilganligi kuzatilgan. Atmosferaga o'zining eng ko'p chiqindi gazlarini chiqarayotgan soha bu kimyo sanoati bo'lib, yiliga atmosferaga 230 ming tonnadan ziyod chiqindi gazlar chiqaradi, shundan uglevodorod qiymati 120 ming tonna uglerod oksidi va uning changi 40-50 ming tonna oltingurgutli va azot oksidli gazlar 20-25 ming tonnani tashkil qiladi.

Yuqorida ketirilgan ilmiy ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa shuki, O'zbekiston Respublikasi atmosferasida bo'layotgan o'zgarishlarning asosiy qismi chorak asrga to'g'ri keladi. Bu muammoni oldini olish uchun ko'plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish lozim. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalariga ventilyatsion tizimni joriy etish, Korxonalar moddiy texnik bazasini yangilash, imkon qadar elektromobillardan foydalanishni ko'paytirish tufayli atmosferada bo'layotgan muammolarni bartaraf etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.V.Qodirov va boshqalar. Tabiiy muhitni muhofazalashning geoeologik asoslari. Toshkent. 1999.
2. A.To'xtaev. "Ekologiya". Toshkent. 2001.
3. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. 1991 yil.
4. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2000

INTERNET SAYTLARI:

- 5.W.W.W. nature.uz.
- 6.W.W.W. uznature.uz.
- 7.W.W.W. econews. uznature.uz.
- 8.W.W.W. econews.uz.

